

**YOUTH POLICY IN UZBEKISTAN IS THE MAIN COMPONENT OF STATE POLICY AND THE PROCESSES OF INCREASING ITS EFFECTIVENESS****Sharofiddin Khanimov***Researcher**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: [sharofiddin\\_2017@mail.ru](mailto:sharofiddin_2017@mail.ru)***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** youth, politics, state policy regarding youth, legal framework, legal technique, jurisdiction, legal culture, legal awareness, legal education.

**Received:** 29.01.23**Accepted:** 31.01.23**Published:** 02.02.23

**Abstract:** Young people, especially in our country, to further increase the effectiveness of the state policy on youth, to raise the moral and ideological potential of young people based on the needs of the day, and to further improve the effectiveness of the social and spiritual environment between them, the concept of state policy on youth, the issues of its theoretical and legal foundations are discussed separately.

In addition, the concept of space in today's globalized era, the importance of informational attacks in the direction of state policy on youth was discussed in detail.

It is scientifically proven that the influence of the globalization processes on the moral and social values of young people is great, and that each country's strategic policy is determined in the historical stages of raising the moral potential of young people.

The historical stages of raising the spiritual potential of young people in the direction of the state policy on youth, the main stages of the state policy of forming a mature generation in our country from the first period of independence are presented in historical chronological order.

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID SIYOSAT – DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY TARKIBIY QISMI VA UNI SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH JARAYONLARI****Sharofiddin Xonimov***tadqiqotchi**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** yoshlar, siyosat, yoshlarga oid davlat siyosati, normativ-huquqiy asoslar, qonunchilik texnikasi, yurisdiksiya, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya.

**Annotatsiya:** Yoshlar ayniqsa, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish, yoshlarni buguni kun talabidan kelib chiqib maʼnaviy va mafkuraviy jihatdan salohiyatini yuksaltirish hamda ular oʻrtasidagi ijtimoiy maʼnaviy muhit samaradorligini yanada yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sherikchilik munosabatlari, yoshlarga oid davlat siyosati tushunchasi, uning nazariy-huquqiy asoslari masalalariga alohida toʻxtalib oʻtilgan.

Shuningdek, bugungi globallashayotgan zamonda makon tushunchasi, yoshlarga oid davlat siyosati yoʻnalishida informatsion xurujlarning ahamiyati haqida batafsil toʻxtalib oʻtilgan.

Globalashuv jarayonlari davrida yoshlarning maʼnaviy va ijtimoiy qadriyatlariga taʼsiri katta ekanligini, yoshlar maʼnaviy salohiyatini yuksaltirishning tarixiy bosqichlarida har bir mamlakatning oʻz strategik siyosati belgilab olinishi maqolada alohida ilmiy asoslab keltirilgan.

Yoshlarga oid davlat siyosati yoʻnalishida yoshlarning maʼnaviy salohiyatini yuksaltirishning tarixiy bosqichlari, mustaqillikning ilk davridan boshlab mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish davlat siyosatining asosiy bosqichlari tarixiy xronologik jihatdan asoslab keltirilgan.

---

**МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ – ОСНОВНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И ПРОЦЕССОВ ПОВЫШЕНИЯ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

**Шарофиддин Ханимов**

*Исследователь*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

E-mail: [sharofiddin\\_2017@mail.ru](mailto:sharofiddin_2017@mail.ru)

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** молодежь, политика, государственная политика в отношении молодежи, правовая база, юридическая техника, юрисдикция, правовая культура, правосознание, правовое образование.

**Аннотация:** Молодежь, особенно в нашей стране, для дальнейшего повышения эффективности государственной политики в отношении молодежи, повышения нравственно-мировоззренческого потенциала молодежи исходя из потребностей дня, дальнейшего повышения эффективности

---

социальной и духовной среды. между ними отдельно рассматриваются понятие государственной политики в отношении молодежи, вопросы ее теоретических и правовых основ.

Кроме того, подробно обсуждалось понятие космоса в сегодняшнюю глобализированную эпоху, значение информационных атак в направлении государственной политики в отношении молодежи.

Научно доказано, что влияние процессов глобализации на нравственные и социальные ценности молодежи велико, и что стратегическая политика каждой страны определяется историческими этапами повышения нравственного потенциала молодежи.

В историческом хронологическом порядке представлены исторические этапы подъема духовного потенциала молодежи в направлении государственной политики в отношении молодежи, основные этапы государственной политики формирования зрелого поколения в нашей стране с первого периода независимости.

---

## KIRISH

Bugun globallashayotgan zamonda makon tushunchasi torayib bormoqda. Dunyoning narigi burchagida axborotni lahza o'tmay bu nuqtasida ko'rish mumkin. Ammo shunisi muhimki, Vatan va uning istiqboli haqida qarashlar hech qachon toraygan emas.

Dunyodagi globallashuv jarayonlari yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlariga ta'siri katta ekanligini hisobga olish har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishning tarixiy bosqichlarida har bir mamlakatning o'z strategik siyosati belgilab olinadi. Mustaqillikning ilk davridan boshlab mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish davlat siyosatining asosiga aylanib, aholining aksariyat qismini tashkil etgan yoshlar masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda 1991 yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" qonun qabul qilinganligi fikrimizning dalilidir.

## ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- milliy, madaniy an'analarning avloddan-avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi;

yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlay olishlariga kafolat berish; huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi.

Ushbu qonun to 2016 yil 14 sentabrgacha bo'lgan davr maboynida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asosi sifatida xizmat qilib keldi. 206 yildan keyin u yangi sifatlar va g'oyalar bilan boyitilib yangidan qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasida ham yoshlarga oid ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

#### ***Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:***

- Yosh avlodning ijodiy, intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrga ega, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

- Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish;

- O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Bu yo'nalishlardan biri sifatida yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish vazifasi belgilangan.

So'nggi 6 yil mobaynida yoshlar siyosatiga doir jami 106 ta Qonun va qonunosti hujjatlari xususan, 9 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ta farmoni, 25 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 62 ta qarori qabul qilindi.

Jumladan, 2016 yil 14 sentabr kuni yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni qabul qilindi. 2017 yili mamlakatimizda 30 iyun – “Yoshlar kuni” deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022 yil 19 yanvardagi PQ-92-son qarori asosida har

bir mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlar bilan ishlashning yangi vertikal tizimi yaratildi.

Buning natijasida yoshlar murojaatlarini ko‘rib chiqish muddati 30 kundan 5 kunga, yordam ko‘rsatish 40 kundan 16 kunga qisqartirilishiga erishildi. Yetakchilar tavsiyasi asosida ko‘rsatiladigan yordam turlari 11 tadan 25 taga yetkazildi. Yetakchilar tomonidan 14-30 yoshdagi 9,1 mln nafar “Yoshlar balansi” shakllantirildi.

O‘tgan 6 yil davomida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi.

*I. Yoshlarning bandligini ta‘minlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishida:*

- Yoshlar bandligini ta‘minlash, ularning muammolarini hal etishga qaratilgan mutlaqo yangi tizim – “Yoshlar daftari” joriy etildi. Tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlar shaffofligini ta‘minlash, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni 3 bosqichda monitoring qilib borish imkonini beruvchi “yoshlardaftari.uz” elektron platformasi ishga tushirildi.

- Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida har bir tuman (shahar) va viloyatda moliyaviy manbalari aniq belgilangan alohida “Yoshlar daftari” jamg‘armalari tashkil etildi hamda ularda 1 205 mlrd. so‘m miqdorida mablag‘lar shakllantirildi. 2021-2022 yillarda “Yoshlar daftari”ga 861 ming 382 nafar yoshlar kiritilib, 841 ming 654 nafar (97 foiz) yoshlarga 1 090 mlrd. so‘m miqdorida yordam ko‘rsatildi.

- Respublika bo‘yicha 124 ming nafar yoshlar kasb-hunarga, 133,8 ming nafar yoshlar tadbirkorlikka o‘qitildi. Bundan tashqari, yoshlarni talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga masofaviy o‘qitish maqsadida [www.e-kasb.uz](http://www.e-kasb.uz) platformasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ushbu platformada 29 586 nafar yoshlar va 137 ta o‘quv markazlari ro‘yxatdan o‘tdi hamda bugungi kunga qadar 10 637 nafar yoshlar mazkur loyihani muvaffaqiyatli tamomladi.

- Qishloqlarda 714 ming nafar yoshlarga 270 ming gektar yer maydonlarini ajratish orqali ularning bandligini ta‘minlashning yangi mexanizmi yaratildi.

2020 yildan boshlab yoshlar tadbirkorligini kreditlashning yangi tizimi joriy etilib, bugunga qadar 253 ming 789 nafar yoshlarga 6,2 trln. so‘m imtiyozli kredit ajatildi.

Bundan tashqari, 2018 yil “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilinib, 2018-2020 yillar davomida 8 705 ta biznes loyihaga jami 1 trln.858 mlrd. so‘m miqdorida imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi va 42 421 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi.

Hududlarda 65 ta “Yosh tadbirkorlar” kovorking-markazlari hamda 2 525 ta “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari foydalanishga topshirilib, ularda jami 21,5 mingta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Tuman (shahar)larda 210 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari” tashkil etilib, ularda 3,5 trln. so‘m miqdorida 2 408 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

So‘nggi 6 yilda 30 yoshgacha bo‘lgan tadbirkorlar soni 8 barobar ko‘payib, ular soni 750 mingdan oshdi.

## *II. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish yo‘nalishida:*

2019-2022 yillar davomida respublikadagi jami 826 ta madaniyat markazlari, 10 008 ta umumta‘lim maktablarida yoshlarni madaniyat va san‘atga jalb etishga qaratilgan 41 025 ta to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ularga 1 mln. 153 ming nafar yoshlar jalb qilindi. Madaniyat va san‘at yo‘nalishida tashkil etilgan loyiha va tanlovlarga jami 3,2 mln nafar yoshlar qamrab olindi.

Respublika bo‘yicha 51 651 ta sport inshootlari, umumta‘lim maktablari hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablarida 149 mingdan ortiq sport to‘garaklari tashkil etilib, ularda 2,7 mln. nafarga yaqin yoshlar qamrab olindi. Sport yo‘nalishida tashkil etilgan loyiha va tanlovlarga jami 6,4 mln nafar yoshlar qamrab olindi.

2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi. “Ma‘rifat karvoni” loyihasi doirasida 4 mln. dan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi.

“Yosh kitobxon”, “Kitobxon oila” kabi respublika tanlovlari tashkil etilib, 2018-2022 yillar davomida tanlov ishtirokchilari soni 3,6 mln. nafarga yetdi.

Hududlarda 205 ta Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etilib, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 1 mln nafar yoshlar kompyuter dasturlash asoslariga bepul o‘qitildi.

Mahalladan iqtidorli yoshlarni saralash, ularning iste‘dodlarini namoyish etishiga sharoit yaratish maqsadida 20 ta tanlov va musobaqalardan iborat 5 bosqichli (mahalla-sektor-tuman-viloyat-respublika) “Besh tashabbus olimpiadasi” 2 mavsumda o‘tkazilib, ko‘chalar kesimida jami 13 mln nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi.

Ushbu olimpiada natijasida sport bo‘yicha 3 276 nafar, madaniyat va san‘at bo‘yicha 1 132 nafar, intellektual o‘yinlar bo‘yicha 756 nafar, kitobxonlik bo‘yicha 328 nafar, “Ay-Ti” bo‘yicha 392 nafar yoshlar mahalladan seleksiya qilinib, ularni havaskorlikdan professionallikka olib chiqish maqsadida malakali murabbiy va trenerlar birlashtirildi.

Sport musobaqalarida g‘olib bo‘lgan 552 nafar yoshlar yashaydigan mahallalarda minifutbol, vorkaut, stritbol kabi sport majmualari barpo etildi va 540 nafar yoshlarga sport razryadlari berildi.

“Zakovat” intellektual o‘yinini ommaviy ma‘rifiy harakatga aylantirilishi orqali 2,6 mln nafardan ortiq yoshlar qamrab olinib, mazkur harakatni rag‘batlantirish maqsadida Davlat budjetida har yili 50 mlrd so‘m mablag‘ ajratilishi yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, intellektual o‘yinlarni rivojlantirish maqsadida 10 085 ta umumta‘lim maktabida (241 ming a‘zo), 194 ta Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasasida (17,3 ming a‘zo), 560 ta professional ta‘lim muassasasida (6,7 ming a‘zo), 65 ta akademik litseyda (1,2

ming a'zo), 159 ta oliy ta'lim muassasasida (9,5 ming a'zo), 5 600 ta mahallada (67 ming a'zo) "Zakovat" intellektual klubining to'garaklari va ularning koordinatorlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

### *III. Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:*

So'nggi 6 yilda yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli va fidoyi yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi. Jumladan, 143 nafar yoshlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, 105 nafar yoshlar "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi.

2020 yili O'zbekiston Respublikasi Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlarni birlashtirgan Yoshlar parlamentlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti, shuningdek, respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun Prezident va davlat stipendiyalari joriy etildi.

Yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyati, xorijiy tillarni o'rganishini rag'batlantirish maqsadida "Ibrat tillar oromgohi", "Bo'lajak olim", "O'zbekiston uchun 100 g'oya" loyihalariga 63,5 mlrd so'm mablag' yo'naltirilib, tanlovlarda 80 ming nafar iqtidorli yoshlar qamrab olindi.

Yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishlarini rag'batlantirish maqsadida xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan 10 300 nafar yoshlarga 18 mlrd. so'm miqdoridagi imtihon xarajatlari qoplab berildi.

Bugun ilm egallashning uslublari o'zgargan. Hozir an'anaviy ta'limdagidek, auditoriyalarda uzundan-uzoq ma'ruzalarni esnab tinglash emas, shiddatkor texnologiyalarda o'zlashtirish mumkin.

### *IV. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:*

To'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talaba yoshlar uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilib, bugungi kunga qadar 151 ming yoshlarga 1,7 trln so'm imtiyozli ta'lim kreditlari berildi.

Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida alohida dastur qabul qilindi. 2018-2020 yillarda 3 460 ta yosh oilalarga "Yoshlar uylari" topshirilib, 156 mlrd. so'm miqdoridagi boshlang'ich to'lov mablag'lari 20 yil davomida foizsiz qaytarish sharti bilan to'lab berildi.

Chin yetim, nogiron, Mehribonlik uyida tarbiyalangan va boquvchisini yo'qotgan 729 nafar talabalarning 2,1 mlrd. so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari qoplab berildi.

### *V. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishida:*

O'zbekiston 2018 yilda ShHT Yoshlar kengashiga, 2020 yilda MDHga a'zo mamlakatlarning Yoshlar ishlari bo'yicha Kengashiga, 2021 yilda Osiyoda o'zaro ishonch choralari bo'yicha Kengashining Yoshlar bo'yicha Kengashiga teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi.

Davlat rahbarining tashabbuslari bilan "Markaziy Osiyo yoshlar forumi, ShHTga a'zo mamlakatlari Yoshlar Kengashining 15-yig'ilishi, ShHT mamlakatlari yoshlari o'rtasida eng yaxshi startap loyihasi" tanlovi, Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumi o'tkazilib, Buxoro

shahri birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti, 2022 yil turkiy dunyoda “Yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilindi.

2020-2022 yillarda yoshlar ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi imkoniyatlarni kengaytirishda “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida O‘zbekistonyoshlariportalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholashning milliy indeksleri, yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish, portalda yoshlar siyosatini baholash milliy indeksleri va yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish ishlari amalga oshirilmogda.

Yoshlarga oid davlat siyosatida: - raqamli ta‘limni rivojlantirish yo‘nalishida yosh mutaxassislarni o‘qitish va ularning xalqaro IT-sertifikatlarini olish uchun 50 foizgacha xarajatlarini qoplash tizimini joriy etildi;

- imkoniyati cheklangan bolalarga ta‘lim olishning barcha darajalarida ishtirok etishga yordam berayotgan yoshlar uchun onlayn vositalardan foydalanish imkoniyatlariga ega platforma ishlab chiqildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining yana bir yo‘nalishi sifatida ma‘naviy yuksalishga xizmat qiladigan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi tasdiqlandi.

Dastur quyidagi 3 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich 2020-2021yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

Ikkinchi bosqich 2022-2023yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

uchinchi bosqich 2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

Yoshlar ma‘naviy hayotida qabul qilgan axborotlarni qayta ishlashi hamda har qanday guruh tomonidan ko‘rsatilayotgan ta‘sirga mustaqil individual mafkuraviy pozitsiyasini bayon qilishi, yoshlarning jamiyatimiz barcha sohalarida mehnat qilayotgani va ta‘lim olayotganiga e‘tibor berilsa, ularning kelajak bunyodkorlari ekanligiga amin bo‘lamiz. Yoshlar hozirgi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma‘naviy islohotlar jarayonida faol ishtirok etishmogda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlari mamlakatimizni yangi taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni maqsad qilib, unda yoshlarni mustaqil fikrlaydigan siyosiy faol, iymon-e‘tiqodli barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu borada yuqorida qayd etilgan davlat dasturlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bularni amalga oshirishning huquqiy kafolati bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 202-2022 yilgi hisobotlaridan.



2. <https://president.uz/ru>, <http://huquqburch.uz/uz/view/779>

3. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6017-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

4. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-92-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.01.2022 yil.

5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022 y., 07/22/92/0046-son.6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi/ Uning o‘zi. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.1. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.– B.114.